



UDK: 13:248.3

Zebo DONIYOROVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti
E-mail: sanaqulovaumida290@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0006-2422-799X>

Filologiya fanlari doktori U.Sattorov taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING JANR TIZIMIDA AFSONALARNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining janr tizimida afsona janrining tutgan o'rni, uning boshqa janrlar bilan aloqasi, badiiy va semantik xususiyatlari tahlil etiladi. Afsonalar xalq dunyoqarashi, tarixiy xotirasi, e'tiqodiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular xalqning madaniy identitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida afsonalarning tipologiyasi, ularning real va fantastik unsurlar uyg'unligi, shuningdek, ularning toponimik, diniy va ijtimoiy mazmuni yoritiladi.

Kalit so'zlar: afsona, og'zaki ijod, janr tizimi, xalq tafakkuri, toponimik rivoyat, diniy motiv, madaniy meros.

РОЛЬ МИФОВ В ЖАНРОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОГО УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация

В статье рассматривается место легенд в жанровой системе устного народного творчества узбекского народа. Анализируются художественные и семантические особенности легенд, их связь с другими жанрами, а также роль в формировании исторической памяти, религиозных представлений и культурной идентичности народа. Особое внимание уделяется типологии легенд, сочетанию реальных и фантастических элементов, а также тематическим направлениям, включая топонимические и религиозные мотивы.

Ключевые слова: легенда, устное народное творчество, жанровая система, народное мышление, топонимическая легенда, религиозный мотив, культурное наследие.

THE ROLE OF LEGENDS IN THE GENRE SYSTEM OF UZBEK FOLK ORAL CREATIVITY

Annotation

This article explores the role of legends in the genre system of Uzbek folk oral tradition. It analyzes the artistic and semantic features of legends, their interrelation with other genres, and their significance in shaping historical memory, religious beliefs, and cultural identity. The study focuses on the typology of legends, the combination of realistic and mythical elements, and their thematic content, including toponymic, religious, and social motifs.

Key words: legend, oral tradition, genre system, folk worldview, toponymic legend, religious motif, cultural heritage.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqimizning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy merosining ifodasidir. Bu ijodiy meros janr jihatdan nihoyatda boy va rang-barang bo'lib, afsonalar unda alohida o'rin egallaydi. Afsona janri boshqa og'zaki nasr shakllari - rivoyat, ertak, doston kabi janrlar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, o'ziga xos semantik va badiiy xususiyatlarga ega. Ular ko'pincha diniy, tarixiy, toponimik yoki axloqiy mazmundagi hodisalarni real va syurreal elementlar uyg'unligida ifodalaydi.

Afsonalar xalq tafakkurining mahsuli bo'lib, unda muayyan voqealar haqida xalqona tushuncha, e'tiqod, xayoliy tasavvurlar mujassam bo'ladi. Ular nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga ega, balki xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodida afsonalar orqali qadimiy joy nomlari, tarixiy shaxslar va voqealar, shuningdek, diniy tushunchalarning qanday talqin qilinganini kuzatish mumkin.

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining janr tizimida afsona janrining o'rni, uning boshqa janrlar bilan bog'liqligi, turlari va asosiy mavzulari tahlil qilinadi. Shuningdek, afsonalarning xalq tafakkuridagi o'rni, ularning milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati hamda toponimik, diniy va ijtimoiy mazmuni ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Afsonalar og'zaki nasr namunalari sifatida xalq badiiy tafakkuri, estetik ideallari va dunyoqarashining ifodasida muhim o'rin tutadi. Ular inson, tabiat va olam o'rtasidagi munosabatlarni o'zgacha shaklda, ya'ni uydirma, ramz va ishoralar orqali anglatishga intiladi. Afsona janri xalq ijodining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi va rivojlanishida mifologik tasavvurlar, qadimiy diniy e'tiqodlar va arxaik dunyoqarashlar hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbek xalq afsonalarida inson tafakkurining ilk bosqichlariga xos bo'lgan tabiatni jonlashtirish, olam sirlarini tushuntirishga bo'lgan intuitiv urinishlar yorqin aks etgan. Bunday afsonalarda qadimgi ajdodlarimizning ruhiy olami, tabiat va jamiyat to'g'risidagi qarashlari, ezigulik va yovuzlik, nur va zulmat, hayot va mamot kabi karshiliklar haqidagi tasavvurlari teran poetik ifoda topgan.

Afsonalar janr sifatida o'ziga xos belgilarga, janrlararo bog'liqliklarga va o'ziga xos ijodiy qonuniyatlarga ega. Ularning tarkibiy tuzilishida an'anaviy epik motivlar, mifologik va Real voqealar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Afsonalarning mavzuiy qamrovi keng: ularda yaratilish, jarang yoki qahramonlik, yomonlikka qarshi kurash, muqaddas joylar haqidagi tasavvurlar, tabiat hodisalariga munosabat va boshqa ko'plab mavzular qamrab olinadi. Shu bilan birga, afsonalar real voqealarni yolg'on va fantastik

shaklda bayon etish orqali o'ziga xos poetik qonuniyat darajasiga erishgan.

Xususan, hayoliy uydirma afsona janrining yetakchi belgilaridan biri bo'lib, u orqali voqealarga badiiy uyg'unlik, drammatizm va ramziy ma'no baxsh etiladi. Afsonalardagi obrazlar ko'pincha muayyan arxetipik xususiyatlarga ega bo'lib, ular xalqning umumlashgan estetik ideallari, axloqiy qadriyatlarini va ruhiy ehtiyojlarini ifoda etadi.

O'zbek xalq afsonalarida kuzatiladigan badiiy ifoda vositalari - muqobillik, takror, epitet, metafora, parallelizm, lingvopoetik shakllar va kompozision uslub elementlari - ularning badiiy salohiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, ulardagi didaktik ruh, hayotiy tahlil va ma'naviy g'oyalar ularni nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham ahamiyatli qiladi.

"Afsona" atamasi forscha "afsun – sehr-jodu" ma'nosini anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, fantastika, hayoliy uydirma asosida yaratilgan nasriy hikoyalarga nisbatan qo'llanadi. Janrning nomlanishidanoq anglashiladiki, afsonalarda sehr-jodu, sirli va mo'jizaviy voqealar muhim o'rin tutadi. Afsona janri tabiatni uydirma va irreal voqelikka asoslangan bo'lib, u orqali xalq o'z dunyoqarashi, orzu-umidlari va ezgu niyatlarini badiiy ifoda etishga intiladi. Mazkur janrning shakllanishida va rivojlanishida xalqning mifologik tafakkuri, irsiy xotirasi va falsafiy qarashlari asosiy manbaa hisoblanadi.

Afsonalarda sehr-jodu motivi ko'p hollarda asarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. U orqali voqealarning dramatik tus olishi, kutilmagan burilishlar va fantastik vaziyatlar yuzaga keladi. Sehrli buyumlar, tabiatdan tashqari kuchlar, g'ayritabiiy jonotlar, tushlardagi mukammal olamlar kabi elementlar afsona kompozitsiyasida teran ramziy va semantik yuklamaga ega bo'lib, xalqning ezgulik va yovuzlik, halollik va xiyonat, adolat va zolimlik kabi mafkuraviy tushunchalarini ifoda etadi.

Afsonalardagi sehlilik va mo'jizaviylik ko'pincha qandaydir tushunarsiz va tabiatdan ortiq hodisani yoritishga qaratilgan bo'lib, bu holat afsonaning falsafiy mazmunini boyitishda muhim o'rin tutadi. Misol uchun, asrlar davomida xalq orasida yashab kelayotgan Qizbibi, Chiluston, So'fi Olloyor, Kaltatoy kabi obrazlar atrofidagi afsonalarda ayni sehlilik, sirli kuchlar va g'ayritabiiy mohiyat asosiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday afsonalardagi mo'jizalar real hayotdagi voqealardan farqli o'laroq, irratsional fikrlash tarzi, simvolik tasavvur va tuyg'ularga tayangan holda ifodalanadi. Ular insonni oddiy voqelikdan oliy haqiqatga, ruhiy tozalanish va ma'naviy yuksalishga yetaklovchi bir vosita sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, afsona qahramonining sinovli safarga chiqishi, olamlar orasida sayohat qilishi, sirli joylarga borishi va aql bilan anglab bo'lmaydigan voqealarga duch kelishi – bu janrga xos xosiyatlardan biri sifatida qoraladi.

Shu jihatdan qaralganda, afsona janrida mo'jizaviylikning yetakchi poetik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi uning boshqa og'zaki nasr janrlaridan farqini belgilaydi. Bu holat, o'z navbatida, afsonalarning xalq tafakkurida tutgan o'rni va ma'naviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Afsonalarda voqelik hayoliy uydirma orqali ifodalangani bois, ularda sirli va mo'jizaviy voqealarning namoyon bo'lishi tabiiy holdir. Bu janrdagi asarlarda tilsimiy

kuchlar, sehr-jodu, tabiatdan ortiq holatlar, g'ayritabiiy qahramonlar va "g'aroyib predmetlar" ning ishtirok etishi afsona poetikasiga xos asosiy belgilaridan biri sanaladi. Xalq tafakkuri uchun muhim bo'lgan muayyan tushunchalar - ezgulik va yovuzlik, jazo va mukofot, ishonch va fidokorlik kabi ma'naviy-axloqiy g'oyalar aynan ana shunday fantastik qirralar orqali ifodalanadi.

Afsonalarda hayot voqeligi bilan irreal tasavvurlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchli. Misol uchun, voqea juda tanish va oddiy holda boshlanib, kutilmagan holatda sehrli va mo'jizaviy yo'nalishga buriladi. Bu orqali voqeaning ta'sirchanligi oshadi, uning badiiy falsafasi va mazmuni kengayadi. Shu jihatdan, afsonalarda real voqelik bilan irreal olamni bog'lovchi ramziy ko'pri mavjud. Mifologik timsollar, odatda, xalq tasavvurida muqaddas yoki ehtiromga loyiq sanaladigan tabiiy hodisalar, hayvonot olami, jismoniy kuch yoki aql-farosat sohibi obrazlar bilan bog'liq bo'lib, ular real shaxslar bilan yonma-yon tasvirlanishi janrning xususiyatlaridan biridir.

Afsonalarda geografik makon, tarixiy voqealar, yodgorliklar va aholi yashash manzillari haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Bunday ma'lumotlar afsonani nafaqat badiiy, balki shartli ravishda etnografik va toponimik manba sifatida ham o'rganish imkonini yaratadi. Masalan, afsonada qandaydir qishloqning qurilishi, ko'pri yoki masjidning paydo bo'lishi, vayron bo'lgan yoki tugallangan bir obidaning tarixi tilga olinishi orqali o'sha hududning madaniy-milliy xotirasi aks ettiriladi.

Afsonada ijtimoiy hayotga oid voqealar tasvirida, ko'p hollarda, bayon uslubi yetakchilik qiladi. Bu - janrning muhim uslubiy xususiyati sanaladi. Afsonalar dramatik vaziyatlardan ko'ra hikoya va voqealar zanjiri asosida quriladi. Badiiy obrazlardan ko'ra voqeaning o'zi, uning chiqishi va natijasi birinchi o'rinda turadi. Shu sababli, afsonalardagi real voqelikni badiylashtirish usuli, odatda, folklor logikasiga xos bo'lgan qarama-qarshilik, ramziylik, umumlashtirish va ommaboplik tamoyillariga asoslanadi.

Xulosa. O'zbek xalq og'zaki ijodining janr tizimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, afsona janri bu tizimda muhim va o'ziga xos o'rin egallaydi. Afsonalar orqali xalq o'zining diniy e'tiqodlari, tarixiy xotirasi, axloqiy qarashlari va milliy qadriyatlarini asrlar davomida og'zaki tarzda saqlab kelgan. Ular badiiy-estetik shaklga ega bo'lishi bilan birga, xalq tafakkurining mahsuli sifatida ijtimoiy, madaniy va dini funksiyalarni ham bajargan.

Afsonalar tarkibida real voqealar bilan bog'liq tarixiy dalillar, hayoliy obrazlar, diniy motivlar va toponimik tafsilotlar o'zaro uyg'unlashib, xalq hayotining ko'zgisiga aylangan. Ayniqsa, diniy va toponimik mazmundagi afsonalar xalq e'tiqodini, jug'rofik tushunchalarini va tarixiy ongini yoritishda muhim manba sifatida qadrlanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, afsonalar janrining boshqa og'zaki nasr janrlari - rivoyat, ertak, doston bilan o'zaro aloqadorligi ularning o'ziga xos janrlararo o'tish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat afsona janrining xalq ijodidagi universallik darajasini belgilaydi.

Shunday qilib, afsonalarni faqat folkloriy matn sifatida emas, balki xalq tafakkurining, madaniy identitetining, tarixiy va dini ongining ifodasi sifatida o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Hayitmetov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 360 b.
2. Imomov K. O'zbek xalq nasriy og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1981. – 280 b.
3. Zohidov T. O'zbek xalq dostonlari va ularning janr xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1983. – 235 b.